

## **Mustaqillik yillarda haj ziyorati**

*Urakova Feruza Nurillayevna*

*Uchtepa tumani 109-maktabning Oliy toifali Tarix fani o'qituvchisi*

O'zbekiston Respublikasi istiqlolga erishgan kundan boshlab inson huquqlarini kafolatlash va manfaatlarini himoya qilish masalalari hukumatimizning doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda diniy qadriyatlarni tiklash, e'tiqod erkinligini ta'minlash, benazir ilmiy merosimizni va me'moriy obidalarni asrabavaylash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Shuningdek, respublika fuqarolariga muqaddas shaharlarni ziyorat qilish uchun ham qulay sharoitlar yaratildi. Istiqlolgacha sanoqli kishilar muborak ziyoratlarga borish baxtiga tuyassar bo'lgan bo'lsalar, mustaqillik yillarda minglab fuqarolarimiz umra va haj safarlariga borishga muvaffaq bo'lmoqdalar.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2006 yil 26 avgust kunidagi Farmoniga asosan tuzilgan «Haj» va «Umra» tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish masalalari bo'yicha Jamoatchilik kengashi ziyoratchilar uchun yanada qulay sharoitlar yaratib berish, haj va umra safarlarini namunali tashkil etish borasida samarali faoliyat olib bormoqda.

Shu o'rinda mammuniyat bilan aytish lozimki, so'nggi yillarda haj ziyoratiga borish istagini bildirganlarning soni oshib borayotganini e'tiborga olib, 2017 yildan o'zbekistonlik fuqarolar uchun haj kvotasi 7200 nafar qilib belgilandi (ilgari bu ko'rsatkich 5200 nafar edi).

Shuningdek muhtaram prezidentimiz tomonida Haj» va «Umra» tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi qarorlari alohida e'tirofga loyiq.

Fuqarolarning vijdon erkinligi va diniy e'tiqodga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini to'liq ta'minlash, «Haj» va «Umra» tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. «Haj» va «Umra» tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi hamda O'zbekiston musulmonlari idorasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda «Haj» va «Umra» tadbirlariga boradigan fuqarolar ro'yxatining xolisona va ijtimoiy adolat mezonlari asosida shakllantirilishini hamda muqaddas ziyoratlarni tashkil qilishda belgilangan tartibga qat'iy rioya etilishini ta'minlasinlar.

4. «Haj» va «Umra» tadbirlariga borish uchun navbatda turgan ziyoratchilarining doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi o'zgargan taqdirda, ularning avvalgi manzili bo'yicha navbatni saqlanib qolishi belgilab qo'yilsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi «Haj» va «Umra» tadbirlariga boradigan fuqarolarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishning barcha bosqichlari (ruhiy-asab, narkologiya, teri-tanosil, sil kasalliklari yuzasidan tibbiy ko'rik, emlash va boshqalarni) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri hamda tuman (shahar)lar tibbiyot birlashmalarining markaziy ko'p tarmoqli poliklinikalarida, shuningdek, murakkab va ziddiyatli holatlarda hududiy sog'liqni saqlash boshqaruv organi tomonidan belgilanadigan markaziy poliklinikalaridan birida bepul amalga oshirishni ta'minlasin.

6. «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi aviaqatnovlarida fuqarolarning «Haj» va «Umra» tadbirlariga borish-kelishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mazkur tadbirlar uchun aviachiptalar narxini arzonlashtirish choralarini ko'rsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi, O'zbekiston musulmonlari idorasi, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda O'zbekiston musulmonlari idorasining rasmiy veb-saytida «Haj» va «Umra» tadbirlariga boradigan ziyoratchilarining yagona onlayn navbat tizimini shakllantirilishini va mazkur onlayn tizimini doimiy ravishda yangilab borilishini ta'minlasin.

Belgilab qo'yilsinki, tuman (shahar)lar hokimliklari huzuridagi har yilgi «Haj» va «Umra» tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish masalalari bo'yicha tashkiliy guruhlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan taqdim etilgan ziyyoratchilarning ro'yxati asosida ularni «Haj» va «Umra» tadbirlariga boradigan ziyyoratchilarning yagona onlayn navbat tizimida ro'yxatdan o'tkazib boradilar.

Tuman (shahar)lardagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hozirgi vaqtga qadar mazkur o'zini o'zi boshqarish organlarida navbatda turgan ziyyoratchilarni to'liq xatlovdan o'tkazib, xatlov natijalari bo'yicha tasdiqlangan ro'yxatlarni tuman (shahar)lar hokimliklari huzuridagi har yilgi «Haj» va «Umra» tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish masalalari bo'yicha tashkiliy guruhlarga taqdim etsin.

8. Har yilgi «Haj» va «Umra» tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish masalalari bo'yicha jamoatchilik kengashi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzuridagi Har yilgi «Haj» va «Umra» tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha hay'atlar bilan birgalikda har yili «Haj» va «Umra» tadbirlariga boradigan fuqarolar kvotasining ro'yxatda turgan fuqarolarning umumiy sonidan kelib chiqib, mutanosib ravishda taqsimlanishini ta'minlasin.

9. Har yilgi «Haj» va «Umra» tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish masalalari bo'yicha jamoatchilik kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzuridagi Har yilgi «Haj» va «Umra» tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha hay'atlar «Haj» va «Umra» tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom talablari hamda «Haj» va «Umra» safarlariga boradigan fuqarolarning kvotasi va uning hududlar bo'yicha taqsimoti haqida aholi o'rtasida keng tushuntirish ishlarini olib borsinlar. «Haj» va «Umra» ziyyoratlari bilan bog'liq tadbirlar, Har yilgi «Haj» va «Umra» tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish masalalari bo'yicha jamoatchilik kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlar ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borilishiga, xususan «Mahalla» telekanali imkoniyatidan ko'proq foydalanishga e'tibor qaratsinlar.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yoshlar siyosati, axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar masalalari axborot-tahlil departamentiga yuklansin.<sup>1</sup>

Xulosa qilib aytganda, ayni paytda ta'kidlash joizki, islom dini ta'limotlariga ko'ra har bir insonga umrida bir marta haj ziyoratini amalga oshirish (haj safari davomida umra ziyorati ham bajariladi) farz qilingan. Bunda albatta uning sog'lom va iqtisodiy jihatdan yaxshi ta'minlangan bo'lishi belgilangan. Shuningdek, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ham Arabiston yarim orolida yashagan bo'lsalarda umrlarida bir marta haj amalini bajarganliklari tarixdan ma'lum.

Aksariyat musulmon mamlakatlarida, jumladan, Saudiya Arabistoni Podshohligida ham o'z fuqarolariga 5 yilda bir marta haj qilishlari mumkinligi qat'iy belgilab qo'yilgan.

Umid qilamizki, yurtdoshlarimiz haj va umra ibodatlarini ado etmagan fuqarolarga keng imkoniyatlar yaratib berish maqsadida Jamoatchilik kengashining umra va haj safarlarini tashkil etish bilan bog'liq bu yilgi qarorini to'g'ri tushunadilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. 364-сон 07.06.2017. "Haj" va "Umra" tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/docs/-3231366>
2. Abdurashid qori Baxromov. Mustaqillik va vijdon erkinligi// Demokratiya va inson huquqlari.-T., 1999.-№ 34.
3. Холикулова X.Ю. Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг ижтимоий-иктисодий, сиёсий, маънавиймаданий тараққиёти. (Ўқув қўлланма). Жиззах, 2020.
4. Усмонов М. Маънавий ва маданий меросни асрарининг хуқуқий асослари. ЎзДСМИ хабарлари — 2018/1(5)

---

<sup>1</sup> 364-сон 07.06.2017. "Haj" va "Umra" tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

<https://lex.uz/docs/-3231366>

[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)